

SINONIMLAR VA SINONIMIK QATOR, BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NODOSH SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Obidjonova Ruxshona

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Tel.: 95 774 31 22; email: ruxshonaobidjonova0212@gmail.com

Annotatsiya. Boshlang‘ch sinflarda sinonimlarni o‘rgatish orqali bolalarga bir so‘zning o‘rnida boshqa so‘zni qo‘yishni va ulardan har qanday vaziyatda turlichay foydalanishni o‘rgatadi. Ushbu maqolada boshlang‘ch sinflarda sinonimlarni qanday tartibda o‘rgatishni va ularning metodikasini yoritib beriladi. Masalan; sinonimlar bilan ishlashning elementar tarzi 1-sinfdan boshlanishi: o‘quvchilar berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so‘zning 2-3 sinonimini topib aytishga o‘rgatilishi, 4-sinfda esa sinonimlar haqida xususiy tushunchalar kiritilishi kabi tushunchalar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: sinonim, ma’nodosh so‘zlar, kulmoq, mashq, sinonimik qator, bosh ma’no, bo‘yoqdorlik va boshqalar.

Sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar) talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushunchani ifodalaydigan so‘zlar hisoblanadi. Sinonimlar bir-biridan qo’shimcha mano qirrasi, emotsiyal bo‘yog’i, qo’llanilishi jihatidan o’zaro farqlanadi. Har qanday vaziyatda sinonimlardan foydalanish, badiiy san’atda ,so‘zlashish uslubida, ilmiy uslublarda bir so‘zning har xil ma’nosidan foydalanish orqali ham sinonimlarning emotsiyal bo‘yoqdorligini isbotlaydi. Masalan; kulmoq, iljaymoq, kulimsiramoq, xoxolab kulmoq, tabassum qilmoq, miyig‘ida kulmoq, tirjaymoq va shu kabi shakllarda keluvchi ushbu so‘zlarning umumiy ma’nosi “kulmoq” so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ushbu sinonimik qatordagi so‘zlar quyidagi ma’nolarni bildiradi:

Kulmoq – bosh ma’no;

Tabassum qilmoq – badiiy ma’no;

Iljaymoq – salbiy ma’no;

Miyig‘ida kulmoq – o’rtacha ma’no;

Tirjaymoq – salbiy ma’no;

Xoxolab kulmoq – salbiy ma’nolarni bildiradi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishslash juda muhim. Kishi lug’atida sinonimlar qancha ko‘p bo’lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

O'zbek tili - sinonimlarga boy til. «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» da katta so'zining 11 ta, marta so'zining 13 ta sinonimi berilgan. Boshlang'ich sinflarda sinonim so'zlar haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashqlar yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishslash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar berilgan so'zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflarda esa berilgan so'zning 2-3 sinonimini topib aytishga o'rgatiladi, 4-sinfda esa sinonimlar haqida xususiy tushuncha kiritiladi.

Boshlang'ich sinflarda sinonimlarni o'rgatish va ularni o'quvchilar ongiga singdirish uchun quyidagi mashqlar bajariladi:

1. Berilgan manodosh so'zlarni guruhlash. Bunda bir so'z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so'zlar ichiga bir-ikkita boshqa so'z kiritib beriladi. O'quvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun so'zlar quyidagi kabi berilishi mumkin:

- 1.Yuz, aft, varaq, bet, bashara, yuza;
2. kulmoq, bormoq, iljaymoq, uxlamoq, tabassum qilmoq;

2. Berilgan so'zga sinonim tanlash. O'qituvchi otni o'tganda osmon, sifatni o'tganda mazzali, fe'lni o'tganda ko'nikmoq so'zlarini aytadi. O'quvchilar bu so'zlarga sinonim tanlaydilar:

1. Osmon-ko'k, samo, falak;
2. Mazali -lazzatli, laziz, totli;
3. Ko'nikmoq - o'rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq.

3. Tushirib qoldirilgan sinonim so'zlarni o'z o'rniqa qo'yib, matnni ko'chirish. Bunda yozilishi kerak bo'lgan sinonim so'zlar ro'yxati tekshirish uchun beriladi. O'quvchilar sinonimlarni o'rniqa qo'yib, ularning qo'llanilishidagi farqni tushuntiradilar.

Bahor fasli. Fasllarning eng si hisoblanadi. Ushbu faslda tabiat yanadalashadi. Gullar ham o'ziningi bilan odamning ko'zini quvontiradi.

- 1 – chiroyli,
- 2 – go'zal,
- 3 – latofat kabi so'zlar qo'yilishi kerak.

4. Manodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish. Buning uchun sinonim so'zlar qatori qavs ichida beriladi, o'quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko'chiradi:

Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (o't, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar.

5. Sinonim so'zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to'rtta sinonimik qatordagi so'zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. O'qituvchi shu katakchalardagi bir so'zni aytadi. Masalan, chiroyli. O'quvchilar shu so'zga yaqin ma'noli so'z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: go'zal, dilbar, sohibjamol, husndor. Sinonim so'zlar qatori bilan so'z birikmasi tuzadilar:

- chiroyli shahar,
- go'zal manzara,
- sohibjamol malika va hokazolar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at so'zlari o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. 4-sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi.

Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) so'z ma'nosini tushuntirish,
- 2) so'zni faollshtirish,
- 3) so'zni nutqda qo'llash.

O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

1. So'z ma'nosini bir yoki bir necha usul yordamida tushuntirish:

- a) kontekst yordamida;
- b) shu so'zning ma'nodoshi yordamida;
- c) shu so'zning antonimi yordamida;
- d) tavsifiy yo'l bilan (lug'atdan foydalanib yoki o'qituvchning o'zi mustaqil ravishda).

2. So'zni o'qish va yozish (so'zning to'g'ri talaffuzi va imlosi ustida ishlash).

3. So'zning qo'llanish namunalari ustida ishlash (tayyor so'z birikmasi va gaplar ustida ishlash). O'qituvchi o'quvchilarni o'r ganilayotgan so'zlar qo'llangan tayyor so'z birikmalari va gaplar bilan tanishtiradi. Ularning ayrimini aytib turib yozdirish mumkin.

4. So'zning semantik aloqalari ustida ishlash.

5. O'r ganilayotgan so'zlar ishtirokida mustaqil ravishda so'z birikmasi va gap tuzdirish. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish kitobida uchraydigan o'quvcilar uchun tushunarsiz so'zlar mazmuniy xususiyatiga ko'ra turlichadir.

Shuning uchun bu so'zlarning ma'nosini tushuntirishda ularning xususiyatiga mos ravishda eng samarali usulni tanlash lozim. Bu o'rinda bir necha darslikdagi so'zlar misolida so'z ma'nosini tushuntirishning samarali usulini tanlash haqidagi fikrlarimizni bayon qilamiz. Boshlang'ich sinf "Ona tili" va "O'qish kitobi" darsliklarida o'quvchilarga ma'nosini tushunarsiz bo'lgan so'zlar ancha uchraydi.

Adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. Boshlang‘ich ta’lim. “Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi”. 1,7 – Maxsus sonlar. – T.: “Sharq”. 1999.
2. H . Jamaloxonov . Hozirgi o‘zbek adabiy tilida. Toshkent 2005
3. M.Hamrayev. O‘zbekiston Respublikasi va oliy o‘rta ta’lim vazirligi Toshkent. "Iqtisodiyot Moliya". 2007. 2017.2022y
4. Shodiyeva B. 3-sinf. III qism. “Novda edutainment”